
Deputatlar targ'ibot tadbirlarida

Farg'ona shahar Kengashi deputati Gulbahor Husanova tomonidan shahardagi 21-Xorazmiy va Jomiy ko'chalarida koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish bo'yicha aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib borilmoqda.



Ko'p qavatli uylar va xonadonlarda yashovchi fuqarolarimizning imkon qadar ko'chaga chiqmaslik, zarur holatlarda esa tegishli tibbiy niqoblarda, ehtiyot bo'lib harakatlanish tushuntirildi. Shuningdek, deputatimiz tomonidan hududdagi savdo do'konlarida aholining asosiy iste'mol mahsulotlari narxning asossiz oshib ketmasligi ko'zdan kechirildi va tadbirkorimizga tavsiyalar berildi.

2020-03-26 19:01:27